

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

EFIR MOYLI MADANIY O‘SIMLIKLARINING YOVVOYI AJDODLARI (O‘ZBEKISTON)

Allamurotov A.L., kichik ilmiy xodim, O‘zR FA Botanika instituti
(allamurotov0225@mail.ru)

Abduraimov O.S., PhD, katta ilmiy xodim, O‘zR FA Botanika instituti

Maxmudov A.V., PhD, katta ilmiy xodim, O‘zR FA Botanika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston florasida tarqalgan madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining efirmoyli turlari keltirilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, respublikamiz hududida 5 oila 10 turkumga mansub 11 turi uchrashi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: efir moyli, Milliy gerbariy (TASH), flora

Аннотация. В этой статье перечислены эфирномасличные виды дикие родичи культурных растений, которые распространены во флоре Узбекистана. По результатам анализа на территории нашей республики произрастают 11 видов, принадлежащих к 10 роду и 5 семействам.

Ключевые слова: эфирномасличные, Национальной гербарий (TASH), флора

Abstract. This article lists essential oil species, wild relatives of cultivated plants, which are common in the flora of Uzbekistan. According to the results of the analysis, 11 species belonging to 10 genera and 5 families grow on the territory of our republic.

Key words: essential oil, National Herbarium (TASH), flora

Kirish. Efir moyli o‘simliklarni tadqiq qilish va ulardan foydalanish bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi, chunki ko‘pchilik o‘simliklarning efir moyi nafaqat parfumeriya va oziq – ovqatda keng qo‘llaniladi, balki, farmatsevtika sanoati uchun qimmatli dorivor xom ashyo manbai bo‘lib xizmat qiladi[1, 2].

Dunyo florasida efir moyli o‘simliklarining umumiy soni 2500-3000 turga teng. MDH mamlakatlar florasida 77 oila tarkibida 1100-1300 ta turi efir moyli o‘simliklar ekanligi aniqlandi va eng ko‘p turlar *Apiaceae*, *Lamiaceae*, *Asteraceae* oilalariga to‘g‘ri keladi[3].

O‘rta Osiyo davlatlarida efir moyli o‘simliklar tarqalishi turlichadir. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, Qozog‘iston florasida 6000 ta turdan, 500 tasi[1], Qirg‘izistonda esa 4200 turdan, 62 turida[4], Tojikistonda esa 1500 tur o‘simlik efirmoyli hisoblanadi[5].

O‘zbekiston Respublikasi florasida 171 oila, 1003 turkum va 4350 ga yaqin o‘simlik turlari tarqalgan bo‘lib[6], shulardan 56 oila, 261 turkumga oid 650 tur (14,94%) o‘simliklarda efirmoy mavjudligi aniqlangan[7].

Respublikamizda madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlari (MO‘YoA) ning efir moyli o‘simliklari ro‘yxati shakllantirilmagan va turlar tarqalishi aniqlanmagan. Ushbu maqolada MO‘YoA ning efir moyli o‘simlik turlari ro‘yxati va floramizda tarqalishi keltirilgan.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Milliy gerbariy (TASH) fondida saqlanayotgan namunalar hamda mavjud adabiyotlar asosida O‘zbekiston florasidagi madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlar efirmoyli turlarining zamonaviy tahlili amalga oshirildi.

Adabiyotlarni o‘rganish natijasida respublikamiz florasida MO‘YoA ning 24 oila, 102 turkumga mansub 202 turdan iborat ekanligi aniqlandi[8], shulardan 5 oila, 10 turkum, 11 tur o‘simlikda efir moy mavjudligi qayd etildi. Ushbu turlar orasida *Apiaceae* oilasi vakillarining ulushi yuqori ekanligi aniqlandi (1-jadval).

Milliy gerbariy (TASH) fondida ushbu turlar ishtirokida jami 405 ta gerbariy namunalari saqlanayotganligi ma‘lum bo‘ldi va *Lallemantia royleana* (Benth.) Benth., *Daucus carota* L., *Artemisia dracunculus* L. turlarining namunalar soni bo‘yicha etakchi ekanligi qayd etildi.

1-jadval


Madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining efir moyli turlari

Oila	Turkum	Tur	Hayotiy shakli
<i>Amaranthaceae</i> Juss.	<i>Dysphania</i> <u>R.Br.</u>	<i>D. botrys</i> (L.) Mosyakin & Clemants	Bir yillik
<i>Apiaceae</i> Lindl.	<i>Apium</i> <u>L.</u>	<i>A. graveolens</i> L.	Ikki yillik
	<i>Carum</i> <u>L.</u>	<i>C. carvi</i> L.	Ikki yillik
	<i>Daucus</i> <u>L.</u>	<i>D. carota</i> L.	Ikki yillik
	<i>Ferula</i> <u>Tourn. ex L.</u>	<i>F. karelinii</i> Bunge	Ko‘p yillik
	<i>Foeniculum</i> <u>Mill.</u>	<i>F. vulgare</i> Mill.	Ko‘p yillik
<i>Asteraceae</i> Bercht. & J.Presl	<i>Artemisia</i> L.	<i>A. dracunculus</i> L.	Ko‘p yillik
		<i>A. terrae-albae</i> Krasch.	Yarim buta
<i>Fabaceae</i> <u>Lindl.</u>	<i>Trifolium</i> <u>Tourn. ex L.</u>	<i>T. pratense</i> L.	Ko‘p yillik
<i>Lamiaceae</i> <u>Martinov</u>	<i>Lallemantia</i> <u>Fisch. & C.A. Mey.</u>	<i>L. royleana</i> (Benth.) Benth.	Bir yillik
	<i>Mentha</i> <u>L.</u>	<i>M. longifolia</i> (L.) L.	Ko‘p yillik

So‘nggi yillarda botanik tadqiqotlarni amalga oshirishda xamda olingan natijalarni zamonaviy metodlar orqali ifodalashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, bu borada GAT xaritalaridan keng ko‘lamda foydalanilmoqda. Tadqiqotimiz davomida TASH fondida mavjud MO‘YoA ning efir moyli o‘simlik turlari gerbariy namunalarining terilgan joylarining zamonaviy GAT xaritalari tuzildi. Efirmoyli o‘simliklar respublikamiz hududida bir tekis tarqalmagan bo‘lib, asosan tog‘ va tog‘ oldi hududlarda keng tarqalganligi qayd etildi(1-rasm).

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.



1-rasm. Madaniy o‘simliklarining yovvoyi ajdodlarining efirmoyli turlarining floramizda tarqalishi.

Xulosa. Tahlil natijalariga ko‘ra, respublikamiz hududida madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining efirmoyli turlari 5 oila 10 turkumga mansub 11 turi uchrashi qayd etildi. Mazkur turlar asosan, Qashqadaryo, Toshkent, Surxondaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarida o‘chrash ulushi yuqori ekanligi kuzatildi. Ushbu olingan natijalar, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Каржаубекова Ж.Ж., Гемеджиева Н.Г., Арысбаева Р.Б. К содержанию эфирных масел у дикорастущих видов горных хребтов юго-востока Казахстана. 2015. Вестник Казах. Нац. Универ. Серия Биология. №3 (65).– С.
2. Войткевич С.С. Эфирные масла для парфюмерии и ароматерапии. – М.: Пищевая промышленность, 1999. – 284 с.
3. Ткаченко К. Г. Эфирномасличные растения и эфирные масла: достижения и перспективы, современные тенденции изучения и применения // Вестник Удмуртского университета. 2011. Вып. 11. С. 88–100.
4. <https://bigenc.ru/geography/text/2065934>
5. Хаджиматов М. Дикорастущие лекарственные растения Таджикистана. – Душанбе. Гл. науч. ред. Тадж. Энциклопедии, 1989. – 368 с.
6. Sennikov A.N., Tojibaev K.Sh., Khassanov F.O., Beshko N.Yu. The Flora of Uzbekistan Project // Phytotaxa 282 (2):107-118. 2016.
7. Хожиматов К. Эфиромасличные растения Узбекистана и пути их рационального использования: дис. д-ра биол. наук. Ташкент: Институт ботаники, 1999. 110 с.
8. Abduraimov OS, Maxmudov AV, Kovalenko I, Allamurotov AL, Mavlanov BJ, Shakhnoza SU, Mamatkasimov OT. 2023. Floristic diversity and economic importance of wild relatives of cultivated plants in Uzbekistan (Central Asia). Biodiversitas 24: 1668-1675.